

## MIGRENNI DAVOLASHDA FOYDALANILADIGAN SINTETIK PEREPARATLARNING KIMYOVIY TARKIBI

**Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov**

Andijon davlat universiteti  
Kimyo fanlari doktori, professor,

**Guloro Abdulhakim qizi Xaydarova**

Andijon davlat universiteti I-bosqich magistranti  
[xaydarovaguloro.98@gmail.com](mailto:xaydarovaguloro.98@gmail.com)

### ANNOTASIYA

Maqolada migren kasalligini davolashda ishlatiladigan sintetik preparatlar kimyoviy tarkibi, tuzilishi va ta'sir qilish mexanizmi o'rganildi xamda nojo'ya ta'sirlari kengroq yoritib berildi

**Kalit so'zlar:** gipertoniya, ateroskleroz, gipotoniya, bosh og'rig'i, migren, nevroz, angionevrotik shish.

### ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ СИНТЕТИЧЕСКИХ ЛЕКАРСТВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ ЛЕЧЕНИИ МИГРЕНИ

**Аннотация.** В статье изучены химический состав, структура и механизм действия синтетических препаратов, применяемых при лечении мигрени, а также более подробно объяснены их побочные эффекты.

**Ключевые слова:** артериальная гипертензия, атеросклероз, артериальная гипотензия, головная боль, мигрень, невроз, ангионевротический отек.

### CHEMICAL COMPOSITION OF SYNTHETIC MEDICINES USED IN THE TREATMENT OF MIGRAINE

**Abstract:** In the article, the chemical composition, structure and mechanism of action of synthetic drugs used in the treatment of migraine were studied, and their side effects were explained in more detail.


**Keywords:** hypertension, atherosclerosis, hypotension, headache, migraine, neurosis, angioneurotic edema.

Og'riq sezishni idrok etish insoniyatning evolyutsion taraqqiyot jarayoni davomida paydo bo'lgan fiziologik holatdir. Bu xisning asosiy zaruriyati odam organizmiga xavf solayotgan ta'sirot to'g'risida ogohlantirish, shu bilan birga bunga qarshi tadbir ko'rish va bo'lajak ko'ngilsiz asoratlarning oldini olish imkoniyatlarini ishga solishdir. Boshqacha aytganda, og'riqni bo'lishi organizmni xavfli ta'sirlardan ximoya qilishga qaratilgan.


Hozirgi kunda 55% insonlarda Migren irsiy kasallik bo'lib, bosh og'rig'i asosan ayollarda kuzatilmoqda. Asosiy belgisi boshda to'xtab- to'xtab tutadigan og'riqlardir u pulsni yodga soladi. Unda doimo ko'ngil aynishi, eshtish va ko'rish ta'sirchangligi ortishi kuzatiladi. Ammo migrenning aksariyat turlari poligendir, ya'ni kasallik bir necha genlar omilida paydo bo'ladi.

Migren tashqi qo'zg'atuvchilarga bog'liq bo'lishi ham mumkin bularga ochlik, uyqu yetishmasligi, havotirlanishlar kiradi. Olimlar nevrologik jarayonlar ustida hali ham ish olib borishmoqda, Masalan migren sabablaridan biri bo'lgan qon tomirlari kengayishining oldini oluvchi yangi dori vositalari ishlab chiqilgan. Bundan tashqari migrenning asosiy belgisi og'riqdir va u subektiv hisyot hisoblanadi.

Bugungi kunda keng tarqalgan markaziy nonarkotik analgetiklardan biri paratsetamol bo'lib, zaif yallig'lanishga, og'riq qoldirish xususiyatlariga ega. Biroq, katta dozalarni qabul qilganda, u jigar, qon aylanish tizimi va buyraklarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Spirtli ichimliklarni bir vaqtda iste'mol qilish bilan ushbu organlar va tizimlarning ishini buzish xavfi ortadi, shuning uchun spirtli ichimliklarni iste'mol qiladigan odamlarga paratsetamolning kam dozasini qo'llash tavsiya etiladi.



N-(4-gidroksifenil)asetamid





Paratsetamol (lotincha: Paracetamolium) anilidlarm guruhidan bo'lib, analgetik va antipiretik dori vositasi hisoblanadi. Nomi, kimyoviy nomenklaturada to'liqqismning qisqartmasi sifatida hosil bo'ladi: para - asetilaminofenol.

Paratsetamol kimyoviy xossalari jihatdan o'xshash xususiyatlarga ega fenasetinning asosiy metabolitidir. Fenacetinni qabul qilganda, u organizmda tez hosil bo'ladi va ikkinchisining analgetik ta'sirini keltirib chiqaradi. Analgetik faollik nuqtai nazaridan, paratsetamol fenasetindan sezilarli darajada farq qilmaydi, u kabi, u zaif yallig'lanishga qarshi faollikka ega. Biroq, bu dori uzoq muddatli foydalanish bilan,

ayniqsa yuqori dozalarda nojo'ya ta'sirga olib kelishi mumkin, xususan, nefrotoksik va gepatotoksik ta'sirga ega. Shunga qaramay, paratsetamol bolalar uchun xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali dorilar ro'yxatiga kiritilgan.

*Bosh og'rig'ini davolash* nevrologiya jamiyati qo'shma bayonotida kuchli bosh og'rig'i yoki migrenni davolash uchun birinchi darajali davolash usullaridan biri sifatida paratsetamolni kofein bilan birgalikda qo'llashni tavsiya etadi.

*Nojo'ya ta'sirlari* Paratsetamol nojo'ya ta'siridan biri bu gepatotoksiklik, jigarning o'limgacha zararlanishidir, jigarda metabolizmga uchraydi va gepatotoksik xususiyatga ega; nojo'ya ta'sirlar spirtli ichimliklar bilan birlashganda kuchayadi, surunkali alkogolizmga yoki jigari shikastlangan odamlarda ham. Shuningdek, oshqozon-ichak traktining yuqori qismlarining asoratlari xavfi, xususan, preparatning yuqori dozalarini doimiy ravishda qabul qilish bilan oshqozondan qon ketish xavfi haqida taxmin mavjud. Buyrakning shikastlanishi kamdan-kam hollarda, asosan dozani oshirib yuborishda kuzatilgan. Ogayo universiteti olimlari paratsetamolni qabul qilish odamning hissiy reaksiyasini zaiflashtirishini aniqladilar.



Drotaverin  $C_{24}H_{31}NO_4$

1-(3,4-dietoksibenziliden) -6,7-dietoksi-1,2,3,4-tetragidroizoxinolin

*Farmakodinamikasi* Drotaverin izoxinolin hosilasi bo'lib, fosfodiesteraza fermentini bostirish yo'li bilan silliq mushaklarga spazmolitik ta'sir ko'rsatadi. Fosfodiesteraza IV fermentining ingibirlanishi SAMF konsentratsiyasini oshishiga olib keladi, bu miozinning kinazasini yengil zanjirini faolsizlantiradi va silliq mushaklarni bo'shishiga olib keladi.

Tarkibi:1 tabletkada quyidagilar saqlanadi:Faol moddasi: 40 mg drotaverin gidrokloridi.Yordamchi moddalari: magniy stearati (Ye470), talk (Ye533), povidon (Ye1201), makkajo'xori kraxmali, laktoza monogidratlarni o'z ichiga oladi.

O'zining tomirlarni kengaytiruvchi ta'siri tufayli u to'qimalarda qon aylanishini yaxshilaydi. Drotaverinning ta'siri papaverinning ta'siridan kuchliroq, so'rilishi esa – tezroq va to'liqroq, u plazma oqsillari bilan kamroq bog'lanadi.

*Farmakinetikasi* Drotaverin peroral qabul qilingandan keyin ham, mushak ichiga yuborilgandan keyin ham tez va to'liq so'riladi. U plazma oqsillari bilan, ayniqsa albumin, alfa va beta-globulinlar bilan yuqori darajada bog'lanadi. Tenzion

turdagi bosh og‘rig‘i mushak zo‘riqishi oqibatidagi bosh og‘riqlari, psixogen, stressli, surunkali kundalik bosh og‘rig‘i, transformatsiyalangan migrenda qo‘llaniladi.

*Nojo‘ya ta’sirlari* Me‘da-ichak yo‘llari tomonidan: ko‘ngil aynishi, qabziyat. Nerv tizimini tomonidan: bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, uyqusizlik, Yurak-qon tomir tizimi tomonidan: yurak tez urishi, arterial bosimni pasayishi Immun tizimi tomonidan buzilishlari: allergik reaksiyalar (angionevrotik shish, toshma, qichishish ta’sirlari paydo bo‘lganida preparatni qabul qilishni to‘xtatish kerak

### **XULOSA**

Bosh og‘rig‘i kasalligiga ta’sir qiluvchi sintetik pereparatlarning kimyoviy tarkibi, tuzulishi va xossalari o‘rganilganda foydali jixatlari bilan bir qatorda nojo‘ya ta’sirlari xam borligi o‘rganildi xamda ushbu pereparatlardan foydalanish jarayonida salbiy oqibatlarini oldini olish muxim deya qaraladi. Bosh og‘rig‘I yani migren kasalligini davolashda imkon qadar tabiiy pereparatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Asqarov I.R..Tabobat qomusi. Toshkent. “ MUMTOZ SO‘Z”.2019. 1042.
2. Asqarov.I.R. SIRLI TABOBAT. Toshkent – “Fan va texnologiyalar nashriyot – uyi” – 2021. 283 b.
3. Azizova S.S. “Farmakologiya”. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2006-yil.
4. Asqarov I.R., Sh.M. Qirg‘izov “Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash” fanidan ma’ruzalar matni. Andijon ADU, 2017-yil..